

IQTISODIY ISLOHOTLAR, XUSUSIY MULKCHILIKNING SHAKLLANISHI. O‘ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING RIVOJLANISHI.

HAYDAROV N.

FarDTU talabasi, nomonjon0915@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu mavzuda bozor iqtisodiyotining rivojlanishida xususiy mulkchilikning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Xususiy mulkchilik iqtisodiy tizimning asosiy elementi sifatida ko‘rib chiqilib, uning shakllanish jarayoni va bozor munosabatlariga ta‘siri tahlil qilinadi. Shuningdek, xususiy mulkning rivojlanishi natijasida raqobat muhiti kuchayishi, tadbirkorlik faoliyatining kengayishi hamda resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari oshishi bayon etiladi. Mavzu doirasida bozor iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun xususiy mulkchilikning muhim omil ekani xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: Bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy islohotlar, mustaqillik, xususiylashtirish, valyuta liberallasuvi, ijtimoiy himoya, rivojlanish bosqichlari, makroiqtisodiy barqarorlik.

O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, mamlakatning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda "O‘zbek modeli" asosida amalga oshirildi. Bu jarayon iqtisodiyotni bosqichma-bosqich isloh qilish va xususiy mulkchilikni shakllantirishga qaratilgan. Bozor munosabatlariga o‘tishning asosiy shartlaridan biri sifatida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish amalga oshirish. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, mulkdorlar sinfi shakllandi, xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligi oshdi. Mulkn xususiylashtirish va ko‘p ukladli iqtisodni shakllantirish O‘zbekistonda ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1992-1993 yillari amalga oshirildi. Bu davrda asosan maishiy xizmat, savdo korxonalar, transport va qurilishning kichik korxonalar, qayta ishlash korxonalar mulk shakli o‘zgartirilib, mulkning ijara, jamoa, aksiyadorlik shakllari vujudga keldi. Uy-joylar xususiylashtirildi. Ikkinchi bosqich O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va

tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etilib, korxonalar aksiyalarini chiqardilar, auksion savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, xususiylashtirishni yoppasiga olib borish ko'zda tutildi.

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Shu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz. Yuzaga kelgan barcha muammo va qiyinchiliklarga qaramay 2008 yilda iqtisodiyotning nafaqat barqaror faoliyat ko'rsatishiga, balki uning yuqori o'sish sur'atlarini izchil ta'minlashga erishildi. O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi izchil va barqaror o'sib bordi. 2008 yilda 1 milliard 700 million AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu 2007 yildagiga nisbatan 46 foiz ko'p. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'lishining o'ziga xos va mos yo'li bugungi kunda jahonga Yurtboshimiz nomi bilan tanildi va bu yo'l adolatli tarzda taraqqiyotning o'zbek modeli deb atalmoqda. Ushbu yo'lga amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotida tub islohotlar o'tkazishni taqozo etadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, islohotlar islohotlar uchun emas, balki odamlar uchun, ularning farovonligini oshirish uchun o'tkaziladi. "Yer, yer osti boyliklari, boshqa tabiiy boyliklar, avlod-ajdodlarning mehnati bilan yaratilgan.

Foydanildan adabiyotlar:

1. Муртазаева P.X. Ba boshqalar. Ozbekiston tarixi. O'quv qollanma. T.Akademiya 2010.
2. Oblomurodov N., va boshqalar. Ozbekiston tarixi. O'quv qollanma. T.Yangi asr avlodi, 2011.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora -tadbirlari to'g'risida" PQ-3775-sonli qarori.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil. 26 yanvar